



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	



YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI

Xatamova Gavhar Kiyamovna

Navoiy davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon miqyosida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadallashib bormoqda. Yashil iqtisodiyot inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim rivojlanish modeli hisoblanadi. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda innovatsion yondashuvlar, iqtisodiy samaradorlik hamda ijtimoiy mas'uliyatning uyg'unligi yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi hamda xalqaro amaliyot misolida muhim xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiyalar, xalqaro tajriba, tabiiy resurslar, yashil energiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik.

Abstract. Currently, the transition to a green economy is gaining momentum worldwide. The green economy is considered a development model aimed at improving human well-being, ensuring social equity, and reducing environmental risks. This article analyzes the impact of green economy and green technologies on sustainable economic development. Particular attention is given to innovative approaches in achieving economic and environmental sustainability, as well as the integration of economic efficiency and social responsibility. Additionally, the experience of Uzbekistan and international practices are examined.

Key words: green economy, green technologies, sustainable development, environmental innovations, international experience, natural resources, green energy, environmental protection, ecological safety.

Аннотация. В настоящее время во всем мире наблюдается активный переход к «зеленой» экономике. «Зеленая» экономика рассматривается как модель развития, направленная на повышение благосостояния населения, обеспечение социальной справедливости и снижение экологических рисков. В данной статье проанализировано влияние «зеленой» экономики и «зеленых» технологий на устойчивое экономическое развитие. Особое внимание уделено инновационным подходам к обеспечению экономической и экологической устойчивости, а также гармонизации экономической эффективности и социальной ответственности. Кроме того, рассмотрены опыт Узбекистана и международная практика.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленые технологии, устойчивое развитие, экологические инновации, международный опыт, природные ресурсы, зеленая энергия, охрана окружающей среды, экологическая безопасность.

KIRISH

Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” istiqbolda barqaror rivojlanishning muhim asosi sifatida qaraladi va uni harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida “yashil” texnologiyalarga yo'naltirilayotgan investitsiya mablag'lari namoyon bo'ladi. Mazkur texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda chiqindilarni qayta ishlash orqali iqtisodiyotni tabiat va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday chora-tadbirlarning davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlanishi ushbu jarayonlarning samarali va izchil amalga oshirilishini ta'minlaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot millat farovonligini oshiradi, energiya resurslaridan muqobil va samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi hamda ekologiyaga zararli chiqindilarni kamaytirish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradi, natijada ekologiyaga yo'naltirilayotgan sarf-xarajatlar ham qisqaradi¹. Jahon mamlakatlarining aksariyati yashil iqtisodiyotni barqaror taraqqiyotga erishish va qashshoqlikni qisqartirishning muhim omili sifatida e'tirof etmoqda. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ma'lum tashkiliy va moliyaviy vazifalarni hal etishni talab qiladi, jumladan, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratish, zarur investitsiya hajmini ta'minlash hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurati mavjud².

“Yashil” iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat: tabiiy resurslardan samarali foydalanish; tabiiy kapitalni oshirish va ifloslanishni kamaytirish; biologik xilma-xillikni saqlash; daromadlarni oshirish va bandlikni ta'minlash³. Yashil iqtisodiyot innovatsion “yashil” texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror taraqqiyotga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar energiya va resurslarni tejash hamda uglerodli energiya manbalaridan foydalanishni qisqartirishga xizmat qiladi⁴. Yashil iqtisodiyot, shuningdek, yashil ipoteka, yashil kreditlar, yashil loyihalarni moliyalashtirish, uglerod va atrof-muhit fondlari, yashil sug'urta kabi moliyaviy instrumentlarni o'z ichiga oladi⁵. Hozirgi vaqtda “yashil” iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda, jumladan, Braziliya va Xitoyda keng namoyon bo'lmoqda⁶.

Yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bu jarayonda davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash hamda xususiy investorlar va iste'molchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan ajratilayotgan investitsiyalar rivojlangan mamlakatlarda asosan yer resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik shaharsozlikni rivojlantirishga yo'naltirilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish va muqobil energiyani rivojlantirishga qaratiladi⁷.

Yashil iqtisodiyot masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Masalan, Kucherov A.V. va Shibileva O.V. yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi. Bulganov Yu.V. va Nabok S.D. “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o'sish hamda barqaror rivojlanish tushunchalarining o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab beradi. Liskovskaya E.A. va Grigoryeva K.M. tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotning hududiy rivojlanishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Nikonorov S.I. yashil moliya vositalari orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlarini asoslab beradi. Ushbu ilmiy qarashlar yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy asoslarini yanada boyitadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur mavzuni kompleks o'rganishga qaratilib, unda bir qator ilmiy usullardan samarali foydalanildi. Avvalo, yashil iqtisodiyotga oid nazariy manbalar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning mazmuni tizimli ravishda umumlashtirildi. Ma'lumotlarni to'plash jarayonida rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va milliy rivojlanish dasturlari chuqur o'rganildi.

Tahlil bosqichida taqqoslash usuli asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi o'zaro solishtirildi, shuningdek, tizimli yondashuv orqali yashil iqtisodiyotning asosiy komponentlari aniqlandi. Analitik usullar yordamida ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi. Bundan tashqari, mantiqiy umumlashtirish hamda induktiv-deduktiv yondashuvlar asosida olingan natijalar izchil tahlil qilinib, ilmiy xulosalar shakllantirildi. Mazkur metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, mavzuni har tomonlama, izchil va chuqur yoritishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida “resurs talab qiluvchi iqtisodiyot modeli” xarajatlarning oshishiga hamda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida

1. Булганов Ю.В., Набок С.Д. Взаимобусловленность понятий «зеленая» экономика, «зеленый» рост и устойчивое развитие // Политические науки, 2017, № 5. С. 89 – 91.
2. Ботавина Р.Н. Экологические аспекты «зеленой» экономики в системе экономического роста России // Мир, 2016, Т.7, № 4, с.142 – 147.
3. Ямасова Н.Н. «Зеленая» экономика: вопросы теории и направления развития // Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 2013. с. 33 – 38.
4. Лисковская Е.А., Григорьева К.М. Формирование «зеленой» экономики и устойчивого развития стран и регионов // Вестник Ожно – Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент, 2018, С.15 – 22.
5. Никонов С.И. К «зеленой» экономике через «зеленые» финансы, биоэкономику и устойчивое развитие//Русская политология.2017, с.12 –15.
6. Ботавина Р.Н. Экологические аспекты «зеленой» экономики в системе экономического роста России // Мир, 2016, Т.7, № 4, с.142 – 147.
7. Яковлев И.А., Кабир Л.С., Никулина С.И., Раков И.Д. Финансирование «зеленого» экологического роста: концепции, проблемы, подходы // Финансовый журнал, 2017, с.9 – 21.



Yevropa mamlakatlari tomonidan “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida ilgari surildi. Hozirgi kunda yashil iqtisodiyot mohiyatiga oid iqtisodchi olimlar tomonidan turli yondashuvlar taklif etilgan bo‘lsa-da, ular o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy qarashlar sifatida namoyon bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot inson farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan, iqtisodiy faoliyatning ekologik jihatdan barqaror natijalarini ta‘minlovchi tizim sifatida talqin etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlik muhitini kuchaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qashshoqlikni qisqartirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash ustuvor vazifa hisoblanadi⁸.

Yashil iqtisodiyot nazariyasi iste‘mol qiymati va sifat ustuvorligi, tabiiy jarayonlarga moslashuv, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish, ko‘p funksiyalilik, tizimli qamrov, xilma-xillik, o‘zini o‘zi tashkil etish, ishtirokchilik hamda inson ijodkorligini rivojlantirish kabi tamoyillarga asoslanadi. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy mexanizmlari sifatida me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat investitsiyalarini “yashil” sanoat va innovatsiyalarga yo‘naltirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega⁹. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlarni kengaytirish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik standartlarini takomillashtirish, ekologik soliqlarni joriy etish, “yashil” biznesni qo‘llab-quvvatlash va barqaror infratuzilmani rivojlantirish zarur hisoblanadi¹⁰.

Zamonaviy sharoitlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va xalqaro amaliyotda bu jarayon yo‘l xaritalari asosida tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur yo‘l xaritalari ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qamrab oladi. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2050-yilgacha kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish dasturi qabul qilingan bo‘lib, unda karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan. Janubiy Afrikada “Suv uchun mehnat qilish” dasturi doirasida tabiiy va inson kapitaliga uzoq muddatli investitsiyalar jalb etilmoqda¹¹. Shuningdek, Hindistonda “Grameen Shakti” loyihasi qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirishga xizmat qilsa, AQShda “IceStone” korxonasi qayta ishlangan materiallardan mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Buyuk Britaniyada “Quiet Revolution” mini-shamol generatorlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lsa, Rossiyada “Ekologik tashabbus” loyihasi plastmassa chiqindilarini qayta ishlashga qaratilgan. Ushbu tajribalar yashil iqtisodiyotning amaliy jihatdan samarali va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishi ekanligini tasdiqlaydi¹².

BRICS mamlakatlari barqaror rivojlanish tamoyillarini o‘z milliy iqtisodiyotlariga izchil integratsiya qilmoqda. Xususan, Xitoyda barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlat tomonidan dotatsiyalar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Hindistonda ushbu yo‘nalish davlat xaridlari tizimi orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda, Braziliyada esa tuproqqa minimal ishlov berish texnologiyalarini joriy etish orqali ekologik barqarorlikka erishilmoqda. Belarussiyada yashil energetika loyihalari ishlab chiqilib, ular amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lib, bu jarayonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash va emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan qishloq xo‘jaligi dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qozog‘istonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konsepsiyasi tabiiy resurslarga tushadigan yukni minimallashtirish va tabiiy muhitning barqarorligini saqlashga yo‘naltirilgan.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi: 2013-2020-yillar oralig‘ida tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish, 2020-2030-yillar davomida yuqori texnologiyalar bazasini shakllantirish hamda 2030-2050-yillarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning qayta tiklanishini ta‘minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu konsepsiyani amalga oshirishda suv resurslaridan samarali foydalanish, yuqori hosildorlikka asoslangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish, energiya tejamkorlik tizimlarini joriy etish, havo ifloslanishini kamaytirish va ekotizimlarni boshqarish muhim ahamiyatga ega¹³. Italiyada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijasida iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning qariyb 25 foizi yashil texnologiyalarga investitsiyalar kiritib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va qo‘shilgan qiymat o‘sishini ta‘minlashga erishmoqda.

Hozirgi vaqtda Yevropa davlatlarida turizm sohasiga bo‘lgan talab yuqori darajada bo‘lib, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona

8 Кучеров А.В., Шибилева О.В. Концепция «зеленой» экономики: основные положения и перспективы развития // Молодой ученый 2014, № 4, с.561 – 563.

9 Егорова М.С. Экономические механизмы и условия перехода к «зеленой» экономике // Фундаментальные исследования. 2014, с.1265.

10 Лисковская Е.А., Григорьева К.М. Формирование «зеленой» экономики и устойчивого развития стран и регионов // Вестник Южно – Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент, 2018, С.15 – 22.

11 Айтимов А.С., Хайрушин Ж.К. «Зеленый мост»: экологический диалог между Европой и Азией // Актуальные проблемы нации, экономики и образования. 2013, № 3, с.293 – 296.

12 Воронина А.А. Социальное предпринимательство в сфере «зеленой» экономики: Основные тенденции развития // Концепт. 2016, Т.41, с. 60 – 64.

13 Воронина А.А. Социальное предпринимательство в сфере «зеленой» экономики: Основные тенденции развития // Концепт. 2016, Т.41, с. 60 – 64.



foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi¹⁴. Yevropa Ittifoqi davlatlari energiya manbalari umumiy hajmining 20 foizigacha qismini muqobil energiya hisobiga ta'minlashni rejalashtirgan bo'lsa, Daniyada ushbu ko'rsatkich 21,3 foizni tashkil etadi¹⁵. Janubiy Koreyada sanoat, energetika va transport sohaslarida yashil texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash hamda hududiy infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. AQShda esa 2030-yilgacha muqobil energetika ulushini 65 foizga yetkazish rejalashtirilgan¹⁶, Buyuk Britaniyada esa yashil loyihalarni keng joriy etish orqali iqtisodiyotda 100 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratish vazifasi belgilangan¹⁷. Qator Yevropa davlatlari 2035-2050-yillarda uglerodsiz iqtisodiyotga o'tishni strategik maqsad sifatida belgilagan.

O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-sonli Qarori¹⁸ asosida 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlangan¹⁹. Mazkur dastur doirasida issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 15 GVt ga yetkazish va ularning ulushini 30 foizdan oshirish, sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini 30 foizga kamaytirish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, yiliga 200 mln ko'chat ekish hamda chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish kabi strategik maqsadlar belgilangan. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot iqtisodiyotning zamonaviy va samarali shakli bo'lib, uning asosiy maqsadi turmush sifatini yaxshilash, ekologik muvozanatni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi vaqtda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida muayyan tashkiliy va moliyaviy vazifalar mavjud bo'lib, ular, avvalo, investitsiya mablag'larini kengaytirish, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qulay moliyaviy sharoitlarni yaratish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish zarurati bilan bog'liq. Yashil texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, uglerod chiqindilarini qisqartirish, ekologik toza transportni rivojlantirish hamda muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga xizmat qiladi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida mavjud muammolar yukini kamaytirish bilan birga, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantiradi. Shu jarayon qishloq xo'jaligi, uy-joy kommunal xo'jaligi, energetika, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi, sanoat, turizm, transport, chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslarini boshqarish kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning muhimligini namoyon etadi.

Zamonaviy sharoitlarda "yashil iqtisodiyot"ga bosqichma-bosqich o'tish maqsadli dasturlar va yo'l xaritalari asosida amalga oshirilmoqda. Bunda BRIKS mamlakatlari tajribasi barqaror rivojlanish tamoyillarini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va boshqa qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar keng qo'llanilmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida O'zbekistonning innovatsion va ekologik rivojlanish modeli tabiatning alohida elementlarini muhofaza qilishdan ekologik tizimlarni kompleks himoya qilishga o'tishni, inson yashaydigan muhitning optimal parametrlarini ta'minlashni hamda iqtisodiyot tarmoqlarini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida rivojlantirish mexanizmlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Yashil iqtisodiyotga samarali o'tishni ta'minlash uchun, avvalo, davlat tomonidan aniq va barqaror normativ-huquqiy baza shakllantirilishi zarur. Shu bilan birga, yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Xususiyl sektorini faol jalb etish maqsadida "yashil" investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi qulay moliyaviy mexanizmlarni yaratish lozim. Ta'lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirish, aholining ekologik ongini oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali resurslardan oqilona foydalanish darajasini oshirish barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

14 Щетинина Н.И. «Зеленая» экономика в деятельности гостиничного бизнеса стран ЕС // Вестник МГЛЦИО университета. 2013, с. 254 – 260.

15 Аскарлов И.М., Егорова М.С. Проблемы финансирования перехода на «зеленую» экономику // Молодой ученый. 2015. с. 396 – 399.

16 Егорова М.С. Содержание «зеленой» экономики: цели и задачи // Современная экономика: проблемы и решения, 2014, с.154 – 167.

17 Сенин А.С., Клепова Т.А. «Зеленая» экономика как инструмент решения экологических проблем» Экономика и социум: современные модели развития. 2016, № 1, с.95 – 98.

18 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/docs/-6303230>.

19 https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_qanday_qilib_yashil_iqtisodiyotga_utadi O'zbekiston qanday qilib yashil iqtisodiyotga o'tadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/docs/-6303230>.
2. Кучеров А.В., Шибилева О.В. Концепция «зеленой» экономики: основные положения и перспективы развития // Молодой ученый. 2014. № 4. С. 561-563.
3. Булганов Ю.В., Набок С.Д. Взаимообусловленность понятий «зеленая» экономика, «зеленый» рост и устойчивое развитие // Политические науки. 2017. № 5. С. 89-91.
4. Ботавина Р.Н. Экологические аспекты «зеленой» экономики в системе экономического роста России // Мир. 2016. Т. 7. № 4. С. 142-147.
5. Ямасова Н.Н. «Зеленая» экономика: вопросы теории и направления развития // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2013. С. 33-38.
6. Лисковская Е.А., Григорьева К.М. Формирование «зеленой» экономики и устойчивого развития стран и регионов // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент. 2018. С. 15-22.
7. Никоноров С.И. К «зеленой» экономике через «зеленые» финансы, биоэкономику и устойчивое развитие // Русская политология. 2017. С. 12-15.
8. Яковлев И.А., Кабир Л.С., Никулина С.И., Раков И.Д. Финансирование «зеленого» экологического роста: концепции, проблемы, подходы // Финансовый журнал. 2017. С. 9-21.
9. Егорова М.С. Экономические механизмы и условия перехода к «зеленой» экономике // Фундаментальные исследования. 2014. С. 1265.
10. Айтимов А.С., Хайрушин Ж.К. «Зеленый мост»: экологический диалог между Европой и Азией // Актуальные проблемы нации, экономики и образования. 2013. № 3. С. 293-296.
11. Воронина А.А. Социальное предпринимательство в сфере «зеленой» экономики: основные тенденции развития // Концепт. 2016. Т. 41. С. 60-64.
12. Щетинина Н.И. «Зеленая» экономика в деятельности гостиничного бизнеса стран ЕС // Вестник МГЦИО университета. 2013. С. 254-260.
13. Аскарлов И.М., Егорова М.С. Проблемы финансирования перехода на «зеленую» экономику // Молодой ученый. 2015. С. 396-399.
14. Егорова М.С. Содержание «зеленой» экономики: цели и задачи // Современная экономика: проблемы и решения. 2014. С. 154-167.
15. Сенин А.С., Клепова Т.А. «Зеленая» экономика как инструмент решения экологических проблем // Экономика и социум: современные модели развития. 2016. № 1. С. 95-98.
16. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_qanday_qilib_yashil_iqtisodietga_utadi O'zbekiston qanday qilib yashil iqtisodiyotga o'tadi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
